



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI

2022- YILDA QASHQADARYO  
VILOYATIDA TURIZM  
VA DAM OLISH  
RIVOJLANISHINING ASOSIY  
KO'RSATKICHLARI




## O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.




## 2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari



■ Turistik firma va tashkilotlar soni, birlik


■ xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni, ming kishi

## Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi shahar va tumanlar kesimida




## 2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


Turistik firma va tashkilotlarining hududlar bo'yicha soni, birl.



2022- yilda qabul qilinganlar soni, ming kishi




2022- yilda jo'natilganlar soni, ming kishi




## 2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, birlik

■ 2021- yil ■ 2022- yil



### Viloyatlar bo'yicha sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, birlik



### Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi

jami 18, ulardan:

88,9 %  
erkaklar

11,1 %  
ayollar




5




## 2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida Qashqadaryo viloyati hududida **44** ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **84,1 %** i mehmonxonalar va **15,9 %** boshqalarga to'g'ri keladi.

### Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik



### Hududlar bo'yicha mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar soni, birlik



### Yulduzlar toifasi bo'yicha mehmonxonalar, birlik toifaga ega bo'lmaganlar



**Xonalar** 0,9 ming nomerlar  
1,6 ming o'rinlar

**Tunab qolishlar soni** 65,6 ming birlik

2022- y.

2021- y.


6



## 2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish

2022- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarga **65,9** ming kishi joylashtirildi, ulardan **92,4 %** i O'zbekiston fuqarolari, **2,7 %** MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va **4,9 %** i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.


### Joylashtirilgan shaxslar soni



- O'zbekiston fuqarolari **60,9** ming kishi
- MDH ga a'zo mamlakatlar fuqarolari **1,8** ming kishi
- xorijiy davlatlar fuqarolari **3,2** ming kishi

2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **15,3** ming kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, **36,7** ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **1,5** ming nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **0,6** nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, **0,1** ming nafari davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida **1,3** ming nafari, ziyoratgohlarga tashrif maqsadlarida kelgan.


### Sayohat maqsadi kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



## 2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni **37** tani tashkil etib, shundan **37,8 %** i Shahrisabz tumanida, **32,4%** Yakkabog' va **8,1 %** Kitob va Muborak tumanlarda faoliyat yuritmoqda. Ixtisoslashtirilgan muassasalar turlari bo'yicha sanatoriya - profilaktoriya **1** ta, katta yoshlilar uchun sanatoriya **5** ta, dam olish uylari va bazalari **2** ta, bolalar uchun sanatoriyalar **5** ta, **15** ta sog'liqni saqlash lageri va boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalaridan tashkil topgan.


### Hududlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari soni, birlik



### Turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari binolari, birlik



### Xonalar, ming birlik



8






## 2022- yilda shaxslarni ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida 21,6 ming kishi ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirildi, ulardan 99,7 % i O'zbekiston fuqarolari, 0,27 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va 0,03 % i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.


### Joylashtirilgan shaxslar soni



■ O'zbekiston fuqarolari	<b>21,5 ming kishi</b>
■ MDH mamlakatlari fuqarolari	<b>0,05 ming kishi</b>
■ xorijiy davlatlar fuqarolari	<b>0,006 ming kishi</b>

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan 10,7 ming kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 8,6 ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 0,8 ming kishi ish va kasbga oid maqsadlar yuzasidan, 0,05 ming kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 1,1 ming kishi ziyoratgohlarga tashrif maqsadida, 0,1 ming kishi do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida va 0,1 ming kishi boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.

### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



## 2022- yilda individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida Qashqadaryo viloyatida 5 ta individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **80 %** i mehmon uylari, **20 %** i dala hovlilar ulushiga to'g'ri keldi.

### Individual joylashtirish muassasalari, birlik




### Xonalar

32 ta xonalar  
77 ta joylar

Tunab qolishlar 205 birl.

\*yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dala hovlilar

### Hududlar bo'yicha individual joylashtirish muassasalari soni, birlik



2021-y.

2022-y.

Qashqadaryo viloyatida 2022- yilda eng ko'p individual turar joylar Dehqonobod (2 ta), Kitob (2 ta) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.


10



## 2022- yilda shaxslarni individual turar joylarga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida individual turar joylarga 205 nafar kishi joylashtirildi, ulardan **80,5 %** i O'zbekiston fuqarolari va **19,5 %** xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

### Joylashtirilgan shaxslar soni




■ O'zbekiston fuqarolari **165** kishi

■ xorijiy davlatlar fuqarolari **40** kishi

Individual turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **116** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **39** nafari ish va kasbiy maqsadlarda, **20** nafari davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari maqsadida, **30** nafari boshqa shaxsiy maqsadlarda kelganlar.

### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, birlik



*ta'til, bo'sh vaqt va dam olish*

*ishga doir va kasbiy maqsadlar*

*boshqa shaxsiy maqsadlar*



*davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari*




## 2022- yilda boshqa joylashtirish muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda boshqa joylashtirish obyektlari soni 2 tani tashkil etdi, ular Qarshi shahrida faoliyat ko'rsatmoqda. Boshqa turdagi joylashtirish vositalariga xostellar va yotoqxonalar kiradi. 2022- yilda 654 nafar ziyoratchiga xizmat ko'rsatildi.


### Hududlar bo'yicha boshqa joylashtirish vositalari soni, birl.



### Boshqa joylashtirish vositalari, birl.




### xonalar:



## 2022- yilda boshqa turar joylarga shaxslarni joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida 654 kishi boshqa turar joylarga joylashtirildi, ulardan 88,9 % i O'zbekiston fuqarolari, 9,9 % MDHga a'zo davlatlar fuqarolari va 1,2 % xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

### Joylashtirilgan shaxslar soni



Boshqa turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **523** nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida va **131** kishi boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.

### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi



## Statistikaga oid eslatmalar

**Turizm** – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

**Turist** – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs. Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

**Mehmon (ziyoratchi)** – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

**Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik** – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

**Davolanish va sog‘lomlashtirish muolajalari** – Ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

**Ishga doir va kasbiy maqsadlar** – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda rezident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



**Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul :  
Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ijtimoiy soha  
statistikasi bo'limi**



**Qashqadaryo viloyat  
statistika boshqarmasi**



**Manzil: Qarshi sh.  
Mustaqillik ko'chasi, 2**

**Tel: +99875 221-09-71**



**e-mail:qashstat@inbox.uz**



**www.qashstat.uz**



**facebook.com/qashstat.uz**

